

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi Qarshiboyeva Zuxra Abduvaxobovnaning "ISH YURITISH HUJJATLARI TURLARI" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Amaliy dars mavzusi "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan hamda uslubiy tomondan to'g'ri tashkil qilingan. Darsda mashg'ulotning maqsadi va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyasi, tayanch so'z va iboralar batafsil berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan.

Taqdimotda belgilangan mavzu haqida to'liq ma'lumotlar qamrab olingan, ish yuritish hujjatlarining tuzilishga ko'ra turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi bo'yicha ma'lumotlar bilan boyitilgan. Amaliy mashg'ulotda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali va o'rinli foydalanilgan, shuningdek fanga yangicha yondashilgan, unda o'zbek tilidan o'qish, tinglab tushunish, yozish, so'zlash ko'nikmalari bo'yicha ham topshiriqlar berilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbek tili o'qituvchisi Qarshiboyeva Zuxra tomonidan tayyorlangan "Ish yuritish hujjatlari turlari" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD



D. Yunusova

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi Qarshiboyeva Zuxra Abduvaxobovnaning "ISH YURITISH HUJJATLARI TURLARI" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Mazkur amaliy dars mavzusi "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturiga to'liq mos keladi. Ochiq dars uchun tanlangan amaliy mashg'ulot mavzusi yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Mavzuga oid topshiriq va mashqlarni tanlashda talabalarning ta'lim yo'nalishi hisobga olinganligi ularning maqsadga muvofiqligini ta'minlash birga dars sifati va samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda mavzuning keng qamrovliligi hisobga olinganligi, boshqa fanlar hamda o'tilgan mavzular bilan bog'langanligi, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanganligi o'qituvchining tajribali pedagog ekanligini namoyish etadi. Tanlangan mashq va topshiriqlarning rang-barangligi va mavzuga mosligi darsning qiziqarliligini ta'minlaydi.

O'qituvchi Qarshiboyeva Zuxra tomonidan tayyorlangan "Ish yuritish hujjatlari turlari" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanining o'quv mashg'ulotida foydalanish uchun tavsiya etaman.

O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD



S. Ulliyeva